


2026-yil 27-yanvar

Dehqonobod tumanida ro'yxatga olish ishlari jadal davom etmoqda



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-173-sonli Farmoni ijrosi doirasida Dehqonobod tumanida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish ishlari izchil hamda yuqori sur'atlarda amalga oshirilmoqda.

Jarayonni samarali tashkil etish, ayniqsa, fuqarolarning onlayn tarzda ro'yxatdan o'tishini osonlashtirish va qamrovni kengaytirish masalalariga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.



Mazkur muhim vazifalarni amalga oshirish maqsadida tuman hokimligi, "O'zkimyosanoat" AJning mas'ul xodimlari hamda tuman statistika bo'limi mutaxassislari ishtirokida markaziy shtab faoliyati tashkil etilgan. Shtabda har kuni amalga oshirilgan ishlar tahlil qilinib, erishilgan natijalar yuzasidan muhokamalar o'tkazilmoqda, aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo'yicha tegishli choratadbirlar belgilanmoqda. Shu bilan birga, mas'ul xodimlar va fuqarolarga ro'yxatdan o'tish jarayonlarini to'g'ri tashkil etish bo'yicha amaliy yordam ko'rsatilmoqda.

Joylarda olib borilayotgan targ'ibot va tushuntirish ishlari ham jarayon samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ishchi guruh a'zolari tomonidan mahallalarga chiqib, aholi bilan bevosita uchrashuvlar tashkil qilinmoqda. Xususan, "Zavqiy", "Paxtachi", "Tepaguzar", "Qo'rg'ontosh" hamda "Tog'aytemir" mahallalarida o'tkazilgan uchrashuvlar davomida fuqarolarga ro'yxatga olish tartibi, uning mazmun-mohiyati va ahamiyati atroflicha tushuntirilmoqda.



Shuningdek, onlayn platformadan foydalanish bo'yicha amaliy ko'rsatmalar va maslahatlar berilmoqda. Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbiri mamlakatning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini belgilashda muhim axborot manbai hisoblanadi.

Shu bois, Dehqonobod tumanida mazkur jarayonlarni uyushqoqlik, aniqlik va yuksak mas'uliyat asosida tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.











source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/dehqonobod-tumanida-ro-yxatga-olish-ishlari-jadal-davom-etmo>